

## TARBIYA FANINI O‘QITISH JARAYONIDA O‘QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Tajiboyeva Go‘zalxon Mahmudjonovna

Namangan davlat pedagogika Instituti o‘qituvchisi

### ARTICLE INFO.

**Kalit so‘zlar:** tanqidiy fikrlash, ta‘lim, tarbiya, boshlang‘ich ta‘lim, metodika.

### Annotatsiya

Maqolada tarbiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari xorijiy tajribalarni tahlil qilish va kerakli tavsiyalar berish asosida yoritilgan. Shuningdek, tanqidiy fikrlashni shakllantirishning huquqiy-me‘yoriy asoslari keltirib o‘tilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Jahon hamjamiyatidagi globallasuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, iqtisodiy, mafkuraviy va ijtimoiy sohalardagi o‘zgarishlar, shuningdek, dolzarb ijtimoiy muammolar yoshlarda tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish, innovatsion tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zarurligini ta‘kidlamogda. YuNESKO xalqaro tashkilotining “Bir umrlik ta‘lim” dasturida XXI asr uchun zarur ijtimoiy ko‘nikmalarni ilk yoshdan rivojlantirish vazifasi belgilangan. Xorij ta‘lim tizimidagi zamonaviy tendensiyalar shaxs mustaqil fikrlashi asosida tanqidiy tafakkurni ilk bolalik davridan boshlab shakllantirishni nazarda tutmoqda. Germaniya, Janubiy Koreya, Rossiya, Finlyandiya, Yaponiya ta‘lim tizimida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga hayotiy vaziyatlarni tanqidiy baholashni va mustaqil qaror qabul qilishni o‘rgatib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda shaxsning ma‘naviy barkamolligini ta‘minlash jarayonini takomillashtirish uchun o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, shaxsga yo‘naltirilgan va muammoli ta‘lim texnologiyalari hamda kompetensiyaviy, qadriyatli yondashuvlarga tayanib, ta‘lim berishning zamonaviy shakllari va interfaol usullarini joriy etish asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ham mazkur jarayonga metodik jihatdan tayyorlash masalalariga katta e‘tibor berilmoqda. Shu ma‘noda, ta‘lim-tarbiya uyg‘unligini ta‘minlashga asoslangan pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish, tanqidiy fikrlashning pedagogik-psixologik jihatlarini keng qamrovli tadqiq etish orqali tarbiyaviy tadbirlarning ta‘sirchanligini oshirish masalalariga e‘tibor kuchayib bormoqda. Boshlang‘ich ta‘limda o‘qitiladigan fanlar mazmunini integratsiyalash orqali o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning diagnostik-prognostik va rivojlantiruvchi metodikalarini takomillashtirish taqozo etiladi<sup>1</sup>.

Mamlakatimizda har tomonlama rivojlangan, mustaqil shaxsiy qarashlari va o‘z nuqtai nazariga, hayotda o‘z tanlovi, qat‘iy fuqarolik pozitsiyasiga ega avlodni tarbiyalashga yo‘naltirilgan, yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarini yoshiga mos,

<sup>1</sup> Коллективная монография / под ред. Н.Г. Ничкало, Г.Н. Филонова, О.В. Суходольской-Кулешовой. – М.: Институт научной и педагогической информации РАО, 2012. – 576 с.

bosqichma-bosqich shakllantirish<sup>2</sup>ga so'nggi yillarda alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday yuksak vazifalarni bajarishda ustoz-murabbiylarning o'zni beqiyosdir. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaga mamlakatimizda o'qituvchilar mehnati jamiyat va davlat ravnaqi, barkamol, sog'lom avlodni barpo etish va voyaga yetkazish, xalqning ma'naviy-madaniy salohiyatini asrab-avaylash va yuksaltirishda tamal toshi bo'lib xizmat qilayotgani e'tirof etilib, Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi<sup>3</sup>.

Shuningdek, "Tarbiya" fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning ma'naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini rivojlantirishga ko'maklashuvchi bilim, ko'nikma va malakalarni ta'lim mazmuniga integratsiya qilish, o'quvchilarda kreativ, tanqidiy tafakkurni shakllantirish hamda rivojlantirish borasida olib borilayotgan tadqiqot ishlarining ilmiy-amaliy ahamiyatini ham alohida ta'kidlash joiz.

Mamlakatimizda xalq ta'limi tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Bu borada olib borilayotgan muhim ishlar xalq ta'limi tizimidagi o'qitish samaradorligiga to'siq bo'layotgan bir qator muammolarni bartaraf etishga xizmat qilmoqda. Jumladan, ta'lim jarayoni darsliklar va boshqa o'quv materiallarini asosan axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan bo'lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotganligi ko'pchilikka ma'lum muammolardan biri hisoblanadi.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"<sup>4</sup>da Milliy o'quv dasturiga asosan 2026-yilga qadar 699 nomdagi, shu jumladan 2022-yilda 296 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, o'qituvchi metodika kitoblari hamda mobil ilovalarni yaratish, Milliy o'quv dasturi bo'yicha yangi metodikalarga o'qituvchilarni o'qitish maqsadida Elektron malaka oshirish platformasi uchun 2026-yilga qadar jami 769 ta videodars yaratish hamda umumta'lim maktablarda darslik va o'quv-metodik majmualarni tajriba-sinovdan hamda chet elik mutaxassislar ishtirokida ekspertizadan o'tkazish tizimini joriy etish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Umumta'lim maktablarida, jumladan, boshlang'ich sinflarda "Tarbiya" fanining ilmiy-metodik asoslarini yaratish masalasi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun "Tarbiya" fani Konsepsiyasi"<sup>4</sup>da ham o'z ifodasini topgan bo'lib, unda:

- ✓ "Tarbiya" fani malaka talablari, o'quv dasturlari va o'quv rejalarini shakllantirish;
- ✓ "Tarbiya" fani darsliklarini yaratishda samarali tarbiya texnologiyalarini joriy etish;
- ✓ "Tarbiya" fani o'quv-metodik majmuasini yaratish va amaliyotga yo'naltirish;
- ✓ davlat ta'lim standartlari talablari asosida o'quvchilar tomonidan odob-axloq, bilim, ko'nikma va malaka hamda kompetensiyalarning to'liq o'zlashtirilishiga erishish;
- ✓ o'quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- ✓ o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish kompetentligini shakllantirish;

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2019 yildagi 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga 1-илова.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // 30.04.2023. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

- ✓ umumta'lim fanlarini o'qitishning prinsiplari yangi metodologiyasi asosida ta'lim-tarbiyaning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash<sup>5</sup> Konsepsiyani joriy etishning asos va prinsiplari sifatida e'tirof etilgan.

“Tarbiya” fani bo'yicha yaratiladigan o'quv-metodik majmuaning yangi avlodini yaratishda qo'yilgan talablarda o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” prinsipi mazmun va mohiyatini o'quvchilarning ong-u tafakkuriga singdirish, o'quvchilarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlash, faol fuqarolik pozitsiyalarini mustahkamlash, mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, teran ma'rifatlilik, bag'rikenglik kabi fazilatlarini shakllantirish vazifalari belgilangan.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning shartlaridan biri “Tarbiya” fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish orqali ularga dunyoni yaxshiroq tushunishga, yaxshi fikrlarga ega bo'lishga, o'zlariga ishonishga, yangi narsalarni o'rganishga va haqiqatan ham teran fikrli va ijodkor bo'lishlariga yordam beradi. Shundagina mazkur fan bo'yicha o'quvchilarga sifatli bilim berish, ularni to'g'ri tarbiya yo'liga yo'naltirish, zarur bilim va hayotiy ko'nikmalarga ega bo'lishlariga, mustaqil hayotga moslashishlariga ko'mak ko'rsatish, turli vaziyatlarda huquqiy, ma'naviy mezonlarga asoslangan holda qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga erishish mumkin bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limda har bir o'quv predmetidan samarali foydalanish orqali kichik yoshdagi o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud bo'lib, o'qituvchilardan ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvni taqozo etadi. Innovatsion yondashuvlar o'qituvchidan darsni yangicha metod va texnologiyalar asosida tashkil etishni taqozo etadi. Shuni e'tiborga olib, Respublika ta'lim markazi tomonidan maktablarda o'qitiladigan “Tarbiya” fani uchun yangi [www.tarbiyam.uz](http://www.tarbiyam.uz) saytini ishga tushirdi. Bu fan o'quvchilarni ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli tayyorlash, ularda faol fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqod, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik kabi fazilatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Yangi yondashuvlar o'qituvchidan darsni yangicha metod va texnologiyalar asosida o'tishni taqozo etadi. Shuni hisobga olib, yangi fanni o'tishda o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash, fan maqsad-vazifalarini va g'oyasini ommalashtirish maqsadida [www.tarbiyam.uz](http://www.tarbiyam.uz) sayti o'z faoliyatini boshladi. Saytda bu fanni o'qitish dasturlari, taqvim-mavzu reja va darslikning elektron variantlari, qolaversa, darsni tashkil etishga doir barcha metodik yordam, qo'shimcha manba va materiallar mavjud.

Ma'lumotga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida “Tarbiya” fani 1-9-sinflarda haftasiga 1 soatdan, o'quv yili davomida esa 34 soat o'qitiladi. Shuningdek, o'qituvchilar uchun “Tarbiya” fani bo'yicha darslarni tashkil qilish yuzasidan zamonaviy yondashuvlar o'rin olgan uslubiy qo'llanma ishlab chiqildi. “Tarbiya” fanini o'qitish texnologiyasi” nomli qo'llanma nashrga tayyorlandi.

O'qitishning innovatsion texnologiyalari o'quvchilarni fikrlashga, yozishga, chizishga, amaliy va mustaqil ishlarni bajarishga oid malakaga va ko'nikmalarni mustahkam egallashlariga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflar uchun “Tarbiya” fani bo'yicha yaratilgan darsliklar quyidagi ilmiy-metodik talablar asosida yaratildi:

- fan-texnikaning so'nggi yutuqlarini o'zida aks ettirishi;
- o'quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi ta'minlangan bo'lishi;
- o'quv fani mavzulari adabiy til qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda oddiy, sodda, tushunarli va ravon tilda bayon qilinishi;
- mantiqiy ketma-ketlik va izchillikka amal qilinishi;

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi “Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 422-sonli Qaroriga 3-ilova. <https://lex.uz/docs/-4885018>

- O‘zbekiston xalqining mentalitetiga zid bo‘lmagan tegishli illyustratsiyalar bilan boyitilishi;
- savol va topshiriqlarning aniq ifodalangan bo‘lishi;
- o‘quvchilarni fikrlashga, yozishga, tasvirlashga, chizma chizishga, hisoblashga, amaliy ishlarni bajarishga, tajribalar o‘tkazishga o‘rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan bo‘lishi;
- bir tushunchaning ikki xil atama bilan ifodalanishiga, sanalarni keltirishda noaniqlikka yo‘l qo‘yilmasligi;
- o‘quvchilarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga yo‘naltirishga oid matn va rasmlar, izohli lug‘at, texnik ijodkorlik, mantiqiy va innovatsion tafakkurni o‘stirishga qaratilgan loyihalash hamda modellashtirish topshiriqlarini qamrab olgan bo‘lishi lozim.

“Tarbiya” fani bo‘yicha yaratilgan dasturlar, darsliklar va o‘quv-uslubiy majmualar ilmiy-metodik jihatdan puxta yaratilgan bo‘lib, fan o‘qituvchilarini ulardan talablarga muvofiq samarali foydalanishlariga o‘ziga xos qulaylik yaratadi. Ayniqsa, o‘quvchilarni fikrlash doirasini kengaytirish, mavzu doirasida mustaqil, tanqidiy fikr yuritish imkonini beruvchi ta‘lim muhitini yaratish orqali qo‘yilgan ta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarga erishish mumkin bo‘ladi.

Tanqidiy fikrlash – bu muammolarni tushunish va hal qilish uchun intellektual salohiyatdan foydalanadigan maxsus fikrlash usuli bo‘lib, o‘quvchi uchun uning bir qator foydasi mavjud. Jumladan:

- tanqidiy fikrlashga orqali o‘quvchi tegishli xulosalar chiqarish va ularning mezonlari bo‘yicha to‘g‘riligini tekshirishga qodir bo‘ladi;
- muammoni hal qilish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni to‘plash va umumlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi;
- o‘z mavqeyini himoya qilish va oqlashga qodir bo‘ladi;
- u savolni, muammoni yoki talabni aniq shakllantira oladi;
- mavhum g‘oyalarni qo‘llashi va ularni sharhlashi mumkin;
- u yangi yechimlarni topishda atrofdagilarga samarali ta‘sir o‘tkazish imkoniyatini qo‘lga kiritadi;
- zarurat bo‘lganda muqobil fikrlash usullaridan foydalangan holda xulosa chiqarish tajribasiga ega bo‘ladi.

Tanqidiy fikrlash – intellektual avlod asrining asosiy ko‘nikmalaridan biri bo‘lib, u ma‘lumotlarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish va tahlil asosida qarorlar qabul qilish, shuningdek shaxsiy fikrlarini shakllantirish va o‘z pozitsiyasini himoya qilish imkonini beradi.

Bugungi axborot asrida insoniyat ko‘plab ma‘lumotlar qurshovida yashamoqda. Bu ma‘lumotlar turli manbalarga ega bo‘lib, ularni qayta ko‘rib chiqish va tekshirish zarur bo‘ladi. Tanqidiy fikrlash orqali turli qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar ko‘rib chiqiladi, ma‘lumotlar orasidan to‘g‘ri va noto‘g‘ri ma‘lumotlarni saralab, tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lish mumkin.

Bugun zamonaviy dunyoda har bir insonni ma‘lumotlar dengizi ostida ko‘rish mumkin. Ular turli xil manbalarga ega va ma‘lumotlarni qayta ko‘rib chiqish va tekshirish kerak. Tanqidiy fikrlash orqali biz turli ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni ko‘ramiz, orasidan noto‘g‘ri ma‘lumotlarni olib tashlaymiz va ularni saralab talqin qilamiz.

Xo‘sh, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni qanday rivojlantirish mumkin? Buning uchun “Tarbiya” fanini o‘qitishda quyidagilarga e‘tibor berish lozim:

- I. O‘quvchilarning bilimlarini muntazam oshirib borish. Chunki, tanqidiy fikrlashga o‘rgatishning asosiy shartlaridan biri – yetarli miqdorda bilimlarga ega bo‘lishdir. Bilim qanchalik ko‘p bo‘lsa,

ma'lumotlarni taqqoslash va tahlil qilish shunchalik oson bo'ladi. Muammoni tanqidiy tahlil qilishdan oldin uni har tomonlama ko'rib chiqish, vaziyatni boshqa voqea-hodisalar kontekstida ko'rish, uning rivojlanishini kuzatib borish kerak bo'ladi.

- II. Tanqidiy fikrlashning asosi sifatida o'quvchilarning qiziqishlari va bilimga chanqoqliklariga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Buning uchun ta'lim jarayonida o'quvchilarga beriladigan savollarni to'g'ri shakllantirish lozim.

Shuningdek, o'tiladigan mavzular bo'yicha 20-30 ta savol shakllantirilishi, har bir savol asosida muammoni turli tomondan ko'rib chiqish va savollar tafsilotlariga oydinlik kirish zarur.

Masalan, 4-sinflarda "Tarbiya" fanidan o'tiladigan "Imkoniyat va matonat" mavzusi bo'yicha quyidagicha savollar tuzish mumkin?

1. Imkoniyat nima?
2. Siz mavjud imkoniyatlardan qanday foydalanasiz?
3. Imkoniyatlaringizni sanab ko'ring.
4. O'z imkoniyatlaringizni qanchalik qadrlaysiz?
5. Insonga orzulariga erishish uchun nimalar to'siq bo'lishi mumkin?
6. Jismoniy kamchilik insonning orzulariga erishishi uchun to'siq bo'la oladimi?
7. Nimalar insonning jismoniy salomatligi uchun jiddiy xavf tug'diradi?
8. Ulkan yutuqlarni qo'lga kiritgan mashg'ur insonlardan kimlarni bilasiz?
9. Imkoniyati cheklangan insonlarga qanday yordam bergan bo'lardingiz?
10. "Imkoniyati cheklangan"lar toifasiga kimlarni kiritamiz?
11. Nimalar insonlar salomatligiga jiddiy xavf tug'dirishi mumkin?
12. Shikastlanishlarni oldini olish uchun nimalarga e'tibor berish zarur?
13. Yo'l harakati qoidalariga amal qilish zarur deb hisoblaysizmi? Nima uchun?
14. Transport vositalari insonlarga qanday qulayliklarni beradi?
15. Transport vositalarini insonlar uchun xatarli tomonlari ham bormi?
16. Tabiiy ofatlarga nimalar kiradi?
17. Tabiiy ofatlar natijasida qanday hodisalar ro'y beradi?
18. Tabiiy ofatlar insonlar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
19. Sayohatga borganda qanday qoidalarga rioya qilish zarur?
20. Koronavirus insonlar uchun xatarli kasallikmi?
21. Undan saqlanish uchun nimalarga e'tibor berish zarur?
22. Siz salomatligi tufayli imkoniyati cheklangan odamlarga nima deb murojaat qilgan bo'lar edingiz?
23. Siz imkoniyati cheklangan bolalar bilan birga o'qishni, o'ynashni xohlarmidingiz?
24. Inson hayotida yutuqlarga erishish uchun nimalarga e'tibor berish zarur?
25. Vaqtdan, imkoniyatdan unumli foydalanmaslik qanday oqibatlariga olib keladi?
26. Siz kelajakda o'zingizni qanday inson sifatida tasavvur etasiz?
27. Orzularingizga erishish uchun o'z oldingizga qanday maqsadlarni qo'yishingiz kerak?

28. Maqsadlaringiz amalga oshishi uchun nimalar qilishingiz zarur?

29. Muvaffaqiyatlarga erishish uchun inson qanday harakat qilishi kerak?

III. O'quvchilarni matnlarni o'qishi va tahlil qilishi.

Tanqidiy fikrlash darslikdagi mavzularda berilgan ma'lumotlarning doimiy tahlili tufayli rivojlanadi. O'quvchilar o'qigan har bir matnni, masalan, quyidagi sxema bo'yicha tahlil qilishlari zarur:

1. Matn qaysi maqsadda yozilgan, kimga murojaat qilinmoqda, qanday g'oyani yetkazmoqchi?
2. Matnda qanday muammo tasvirlangan, uni hal qilishning yagona usuli bormi yoki turli xil variantlar mavjudmi?
3. Muallifning muammoga nuqtai nazari qanday, qanday dalillardan foydalaniladi, ular to'g'ridan-to'g'ri yoki faqat bilvosita ishlab chiqilgan muammo bilan bog'liqmi?"
4. Muallif o'z fikrini qanday tuzadi: berilgan har bir faktni isbotlaydimi yoki buni tabiiy deb qabul qilishni taklif qiladimi? Odatda, u umumlashmalarda – "Buni hamma biladi ..." – kabi yolg'on ma'lumotlar yashiringan. Ularning yordami bilan siz o'quvchini boshqarishingiz va muammoga buzilgan munosabatni shakllantirishingiz mumkin.
5. Matnlarda qayerdadir faktlar, qayerda esa voqeaning talqini berilgan bo'ladi. Boshqa manbalardan shunday dolzarb voqealar haqidagi maqolalarni topib o'qish orqali ularni bir-biridan ajratishni mashq qilish.
6. Matnda yashirin ma'no mavjudmi, agar shunday bo'lsa, u matnning umumiy ma'nosiga qanday ta'sir ko'rsatadi.

Matnni tahlil qilishda, faktlarga, dalillarga va mantiqiy fikrlarga asoslanib, muammoga o'quvchining munosabatini aniqlab oling.

Doimo mavzuga yaqin bo'lgan muqobil (alternativ) ma'lumot manbalariga murojaat qiling.

Tanqidiy fikrlash muammo haqida har xil, ba'zan qarama-qarshi fikrlar bilan tanishishni taqozo etadi. Mavzu yuzasidan muammoni o'rganayotganda turli xil manbalarga murojaat qiling, olingan ma'lumotlarni taqqoslang, uni izchilligi, to'liqligi, ishonchligini baholang, nomuvofiqlikni aniqlang. Ishonchli ma'lumot - tasdiqlangan rasmiy manbalardan olingan va aniq faktlar bilan tasdiqlangan ma'lumotdir. Variantlarni toping.

Tanqidiy fikrlash muayyan omillarga bog'liq holda vaziyatni rivojlantirishning turli xil variantlarini ko'rishni va ushbu variantlardan eng maqbul, qulay va samaralisini ajratib olishni anglatadi.

IV. Har qanday vaziyatda o'quvchining harakatlari oqibatlarini bashorat qilishga o'rgating. Qaror qabul qilishda, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha oqibatlarni daftarga yozishlarini, ularning har birini baholashni, xatoliklar yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlar xavfini qanday kamaytirish haqida o'ylashlarini taklif qiling. Qiyin vaziyatlarni o'ylab toping va o'quvchilarning muammolarni mumkin bo'lgan yechimlari ro'yxatini tuzishlarini topshiriq qilib bering. Kitobdagi yoki filmlardagi personajlarning syujet rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan harakatlarini tahlil qilishga o'rgating. Qahramon hayotini yaxshi yoki yomon tomoniga o'zgartiradigan muqobil ssenariylarni ishlab chiqishlarini taklif qiling.

V. O'quvchilarning xatolarni tahlil qiling

Biz ishonamiz: hech narsa qilmagan inson adashmaydi. Xato – bu o'z-o'zini kamsitish uchun sabab emas, balki keyingi safar nima qilishni yanada aqlli, yaxshiroq va samaraliroq qilish kerakligini aniqlash usulidir. Har bir o'quvchi yo'l qo'ygan xatoni tahlil qilishda konstruktiv yondashing: uni topishga, uning kelib chiqish sabablarni baholashga, qanday qilib unga yechim topish mumkinligi

haqida variantlarni topishlari zarurligini uqtiring.

VI. Noan'anaviy fikrlashni rivojlantirish usullarini qo'llash.

“Chegarani buzib o'tish”. O'quvchilarni muammoni cheksiz resurslar va imkoniyatlar bilan hal qilishlari kerakligini tasavvur qilishga o'rgating. Ushbu holatni hisobga olgan holda yechim variantlarini ishlab chiqishga va keyin ularni resurslar cheklangan vaziyatga o'tkazishga va variantlardan qaysi biri bu holatda to'liq yoki qisman qo'llanilishi haqida o'ylab ko'rishlarini taklif qilish.

“Qo'llash tartibi”. Taroq yoki sharikli ruchka kabi har qanday buyumni olib va undan foydalanishning 10 yoki 20 dan ortiq usulini o'ylab topishga undash.

“Tasodifiy so'z”. O'quvchilarni tasodifiy muammoli vaziyat yaratishlarini taklif qilish va uni kitobdan tanlangan biron bir tasodifiy so'z bilan bog'lashga o'rgatish.

Xulosa qilib aytganda, tanqidiy fikrlash – bu ma'lumotlarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish, har qanday masala bo'yicha o'z fikrini shakllantirish va unga muvofiq harakat qilishda yordam beradigan muhim ko'nikma deyish mumkin. Tanqidiy fikrlash o'quvchilarga o'quv va boshqa vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilishga, qaror qabul qilishga va axborot oqimida harakat qilishga yordam beradi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga intilish va turli mavzular va hodisalar haqida ko'proq bilish savollar berishni, matnni tahlil qilishni va turli xil ssenariylarni ishlab chiqishga o'rgatish, o'yinlar, jumboqlar va maxsus mashqlar yordamida mantiqiy fikrlashni, diqqat-e'tiborni va tasavvurni boyitish zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayeva M.D. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga hurmat hissini shakllantirish texnologiyalari: ped. fanl. b. falsafa doktori (PhD) diss. Avtoreferati – Ch., 2022.47 b.
2. Анисимов О.С. Субъектная рефлексия в игромоделировании и ее понятийное обеспечение. - М.: Угрешская типография, 2012. -С. 285.
3. Ismatova N. va boshqalar. Tarbiya. Umumiy o'rta maktablarning 2-sinf o'quvchilari uchun darslik. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2020.
4. Isakov, A. . (2023). Approaches to Teaching Art in a Digital Age: An Analytical Review of Research between 2000-2021. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(10), 8–19. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/642>
5. Файзуллаев, Т. (1998). Процессы укрепления государственной независимости Узбекистана: теория и практика.
6. Mahmudjanovna, T. G. (2022). Technological Approach to Forming Critical Thinking In Students in the Process of Teaching the Subject of “Upbringing”. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(8), 39-48.